

AGGLYUTINATIV TILLAR SIFATIDA O'ZBEK VA KOREYS TILLARI**UZBEK AND KOREAN AS AGGLUTINATIVE LANGUAGES****Jumanaliyeva Moxiraxon**

2412 students of the Faculty of Foreign Languages and Literature of the UZDJTU

ANNOTATSIYA: This article discusses that agglutinative languages and their general characteristics. In addition, the feature of the Uzbek and Korean languages as agglutinative languages are analyzed. The similarities and differences between the two languages are identified and examined based on examples.

KALIT SO'ZLAR: agglutinative, morfologic, syntax, basis, affix, term of address, hierarchical

Tilshunoslikda tillarni grammatik tuzilishiga ko'ra tasniflash muhim ahamiyatga ega. Ushbu tasnifga ko'ra tillar agglyutinativ, amorf, flektiv, analitik, polisintetik turlarga bo'linadi. Xususan, o'zbek va koreys tillari grammatik tuzilishiga ko'ra agglyutinativ tillar sirasiga kiradi.

Agglyutinativ tillar (lotincha: agglutino – qo'shilish) – so'z o'zagi yoki negiziga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida yangi so'zlar hosil bo'luvchi tillar. Agglyutinativ tillarda so'zning o'zak yoki asosini o'zgartirmagan holda qo'shimchalar qo'shish bilan ma'lum so'z va shakl yasaladi, har bir qo'shimcha muayyan ma'no va vazifada xizmat qiladi. Bu turdagi tillarda har bir qo'shimcha mustaqil grammatik ma'noga ega bo'lib, ularning chegarasi aniq ajralib turadi. Qo'shimchalar, odatda, bir-biriga qo'shib ketmaydi va har biri alohida funksiyani bajaradi. Bunday tillarda so'z shakli murakkablashgan bo'lsa-da, grammatik tuzilma izchil va muntazam bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi “kitoblarimizdan” so'zini olaylik:

kitob – o'zak

-lar – ko'plik

-imiz – egalik(bizniki)

-dan – kelishik

Shuningdek, koreys tilidagi “제 공책에서” so'zini olaylik:

제 - egalik

공책 - o'zak

에서 - kelishik

Ko'rinib turibdiki, har bir qo'shimcha aniq bir ma'noni beradi va ularni osongina ajratish mumkin. Eng muhim jihati shundaki, qo'shimchalar bir-biri bilan aralashib ketmaydi, ya'ni har biri o'z vazifasini saqlab qoladi. Shu sababli agglyutinativ tillar grammatik jihatdan mantiqiy va tizimli hisoblanadi.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, bu tizim o'zbek tilining morfologik qurilishining asosini tashkil etadi. O'zbek xalqi kabi xalqning paydo bo'lishi bir qator etnik guruhlarining qo'shilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ularning aloqa vositalari turkiy va eroniy tillardir. Bu o'zbek shevasidagi dialektlarning ko'pligini, ular o'rtasida katta farq borligini tushuntiradi. O'zbek tilining rivojlanish tarixini uch bosqichga bo'lish mumkin: qadimgi turkiy,

eski o'zbek va hozirgi tillar davrlari. Yigirmanchi asr hozirgi o'zbek tili O'zbekistonning barcha aholisi tomonidan tan olingan Farg'ona lahjasiga asoslangan. O'zbek tili asosan fors tilidan o'zlashtirilgan so'zlarga boy. Yigirmanchi asrda lug'at ruscha so'zlar bilan sezilarli darajada boyitilgan va bugungi kunda u ingliz tilidagi o'zlashmalar bilan jadal ravishda to'ldirilmoqda.

O'zbek tilining agglyutinativ xususiyatlari:

*Qo'shimchalar ketma-ketligi: So'z o'zagiga ma'no ifodalovchi qo'shimchalar birin-ketin qo'shiladi. Masalan: maktab-lar-imiz-ga.

*O'zak o'zgarmasligi: Qo'shimcha qo'shilganda so'zning o'zagi(asosiy qism) o'zgarishsiz qoladi.

*Bir qo'shimcha – bir ma'no: Ko'pincha bir qo'shimcha bitta grammatik vazifani bajaradi.

*So'z tarkibidagi elementlar farqlanadi: Affikslar o'zaro aralashmaydi va har qanday qo'shimchaning chegarasi aniq bo'ladi.

Grammatikasi tilning tuzilishi, so'zlarning shakllanishi va gap ichidagi o'zaro bog'liqlini o'ganadigan bo'limdir. U morfologiya va sintaksisdan iborat bo'lib, tilning tizimli xususiyatlarini yoritadi. Morfologiya so'zlarning shakllanishi va o'zgarishini o'rgatadi. O'zbek tilida so'z turkumlari asosan ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi va predloglardan iborat. Gapda har xil qo'shimchalar(affikslar) qo'shish orqali so'zlar boyitiladi. Misol uchun, kutubxonadan, chiroyligim, o'ynayman, bizlarning. Va bu misollar orqali o'zbek tilining agglyutinativ tillar guruhiga mansub ekanligini guvohi bo'lish mumkin. Sintaksis esa so'zlarning gap ichidagi tartibi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Ega +to'ldiruvchi +aniqllovchi+ hol+ kesim shaklida o'rganiladi. Men kitobni o'qimadim: men-ega, kitobni-to'ldiruvchi, o'qimadim-kesim.

So'nggi manbalarga ko'ra, hozirda o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni – O'zbekistonda 24millionga yaqin, Afg'onistonda 3millionga yaqin, Tojikistonda 1millionga yaqin, Qozog'istonda 500ming, Turkmanistonda 350mingga yaqin, Rossiyada 300ming kishini tashkil etadi.

Koreys tili Sharqiy Osiyoda so'zlashiladigan til bo'lib, Koreya respublikasining davlat tili hisoblanadi. Bugungi kunda, dunyo bo'yicha taxminan 80million kishi koreys tilida gaplashadi. Shu vaqtgacha, ikki ming yil davomida Koreyaning rasmiy tili mamlakatdagi barcha ilm-fan, madaniyat, qonunchilik va ish yuritish tilieng qadimgi xitoy tili bo'lib, Koreyada Xanmun deb atalgan. Tuzilishi jihatdan, koreys tilida 40 fonema(19undosh 21unli)mavjud. Morfologik jihatdan, agglyutinatsiya rivojlangan. Fe'l zamonlari hozirgi, o'tgan va kelasi zamon shakllaridan iborat. Son kategoriyasida birlik va ko'plik shakllari farqlanmaydi. Nisbat kategoriyasi hamma fe'llarga mos emas.

Boshqa tillardan farqli o'laroq, koreys tilida hurmat tizimi juda muhim. Tili ierarxik hisoblanadi. Tinglovchiga murojaat etish paytida uning yoshi, jinsi, mavqei, roli, jamiyatdagi psixologik va shaxsiy munosabatlari nazarga olinadi. Koreya sotsial muhitida murojaat birliklaridan qay darajada foydalanishingizga qarab koreys tili bilish darajangiz qanday ekanligini bilish mumkin. Masalan, chet ellik Koreyada “당신” “siz” etiket birligini koreys darsliklaridan o'rgangani bo'yicha murojaat qilsa, vaziyat keskinlashishiga olib kelishi mumkin. “당신” “siz” murojaat birligi suhbatdoshni chaqirish uchun foydalaniladigan atama emas, aksincha bu so'z insonni haqorat qilish, mensimaslik, pastga urish kabi ma'nolarni anglatadi.

Koreys tili soʻz yasash va grammatik maʼnolarni ifodalashda qoʻshimchalardan keng foydalanishi, qoʻshimchalarning aniq va barqaror maʼnoga ega boʻlishi hamda soʻz ildizining deyarli oʻzgarmasligi sababli agglutinatив tillar guruhiga kiradi. Har bir qoʻshimcha odatda bitta aniq grammatik vazifani bajaradi va ular bir-biriga qoʻshilganda soʻzning asosiy maʼnosini oʻzgartirmaydi, baki uni toʻldirib boradi. Qoʻshimchalar tartibli va izchil tarzda keladi. Masalan, feʼl ildiziga avval zamon qoʻshimchasi, undan keyin hurmat yoki gap ohangini bildiruvchi qoʻshimcha qoʻshiladi hamda har bir qoʻshimcha oʻz maʼnosini aniq saqlaydi. Bu esa agglutinatsiyaga xos belgi hisoblanadi.

Misol: 책을 읽었습니다

책 - oʻzak

을 - tushum kelishigi

었 - oʻtgan zamon

습니다 - rasmiy va hurmat ifodalovchi nutq shakli hisoblanadi

Oʻzbek va koreys tillarning oʻxshash va qiyosiy jihatlari:

Asosiy oʻxshashliklar: gap tuzilishi(SOV) yaʼni ikkala tilde ham gapning oxirida keladi, bu esa gaplarni oʻzaro tarjima qilishni osonlashtiradi;

Agglutinatsiya. Soʻz oʻzagi oʻzgarmaydi, unga qoʻshimchalar ketma-ket qoʻshiladi;

Grammatik qoʻshimchalar. Kelishik, zamon va shaxs-son qoʻshimchalaritizimi oʻxshash(masalan, koreys tilidagi “ga/I” (가/이) oʻzbek tildagi tushum yoki bosh kelishikka “e” (에) esa oʻrin-payt kelishigiga mos keladi);

Hurmat shakllari. Ikkala tillda ham suhbatdoshning yoshi va mavqeiga qarab turlicha hurmat darajalari mavjud.

Asosiy farqlar:

Sanash tizimi. Koreys tilida tub koreyscha va xitoycha ikki xil sanash bor, oʻzbek tilida esa yagona tizim mavjud;

Yozuv tizimi. Oʻzbek tili lotin/krill alifbosidan foydalansa, koreys tili hangul “한글” Alifbosidan foydalanadi;

Tovushlar. Koreys tilida boʻgʻiz undoshlari mavjud boʻlsa, oʻzbek tilida esa undoshlar tizimi boshqacha.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek va koreys tillari agglutinatив tillar sifatida umumiy tipologik xususiyatlarga ega. Ushbu oʻxshashliklar ikki tilni qiyosiy oʻrganish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi, shuningdek, til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni ham chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10208448>
3. Ethnologue – Language of the World

4. Sohn, H.-M. The Korean Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999
5. <https://inlibrary.uz>